



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO MUNOSABATLARNING
TO'LA HUQUQLI SUBYEKTI**

Dauletbaeva Aynur Baxramovna

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti 2-bosqich talabasi*

E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadlari, tamoyillari haqida bilib olasiz. Mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning to'la huquqli a'zosi bo'lib, xalqimiz va davlatimiz manfaatlarini ustun qo'ygan holda tashqi siyosatini amalga oshiradi. Maqola umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurti talabalari va ilmiy izlanuvchilarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat va uning maqsadlari, Harakatlar strategiyasi.

**РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН - ПОЛНОПРАВНЫЙ СУБЪЕКТ
МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ**

Даулетбаева Айнур Бахрамовна

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха
студент 2-го курса юридического факультета*

Аннотация: В этой статье вы узнаете об основных целях и принципах внешней политики Республики Узбекистан. Наша страна является полноправным членом международных отношений и проводит свою внешнюю политику, отдавая приоритет интересам нашего народа и государства. Статья посвящена студентам общеобразовательных школ, высших учебных заведений и научным исследователям.

Ключевые слова: международные отношения, внешняя политика и ее цели, Стратегия действий.



**THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IS A COMPLETE SUBJECT
OF INTERNATIONAL RELATIONS.**

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna

*2nd year student of the Faculty of Law of
Karakalpak State University named after Berdakh*

Abstract: Through this article, you will learn about the main goals and principles of the foreign policy of the Republic of Uzbekistan. Our country is a full-fledged member of international relations and implements its foreign policy, prioritizing the interests of our people and state. The article is dedicated to students of general education schools, higher educational institutions, and researchers.

Keywords: international relations, foreign policy and its goals, Action Strategy.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach yangi hayotga qadam qo‘ydi. Yangi hayotni qurish, davlatni tiklash va har bir sohani takomillashtirish nafaqat ichki balki tashqi siyosatga ham bog‘liq. Xorijiy davlatlar bilan hamkorliklar, shartnomalar buning namunasidir. Faqat bir yoki ikki emas, bir qancha davlatlar bilan hamkorlik mamlakatning xalqaro miqyosdagi o‘rnini belgilaydi va uni mustahkamlaydi. Shuning uchun ham tashqi siyosat eng muhim sohalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti [1] ekanligi mamlakatimiz konstitutsiyasida ham belgilangan. O‘zbekiston boshqa davlatlardan mustaqil holda o‘z ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Mamlakatimizda tashqi siyosiy faoliyat xalqimiz va davlatimiz manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi - davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, atrof-muhitda xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo‘schnichilik munosabatlarini shakllantirish, xalqaro miqyosda faol iqtisodiy tashqi siyosat olib borishdir [2].



O‘zbekiston xalqaro miqqosda yuzaga kelayotgan har qanday xavfga, tahdidiga qaramasdan, o‘zining mustaqilligi, suvereniteti, xavfsizligi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda barcha fuqarolarning farovonligini ishonchli tarzda ta’minlashga qaratilgan qat’iy tashqi siyosat olib bormoqda.

Mamlakatimiz uchun tashqi siyosatni amalga oshirish har tomonlama muhim. Shu bois bu sohani takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro ko‘lamda boshqa davlatlar bilan faol tashqi siyosiy munosabatlarni amalgga oshirmoqda, shu jumladan Markaziy Osiyo davlatlari bilan cheklanib qolmay Evropa davlatlari bilan ham hamkorliklar yo‘lga qo‘yilgan. Davlatimiz Rahbari chet el prezidentlari, elchilarini va konsullarini qabul qiladilar va o‘zi ham xizmat safari bilan chet davlatlarda bo‘ladilar.

Shuningdek, o‘zining ochiq, pragmatik va puxta o‘ylangan tashqi siyosiy faoliyati bilan ham yuksak natijalarga erishmoqda. O‘zbekiston barcha davlatlar uchun ochiqlik siyosatini amalga oshiradi. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz joiz, O‘zbekistonning eng katta yutuqlaridan biri ochiqlik tamoyiliga asoslanishi. Aslida, bu tamoyil birinchi navbatda xalqimiz manfaatlarini ko‘zlab amalgga oshirishni nazarda tutadi. Ya’ni, yaqin do’stlik munosabatlarini amalga oshirayotgan ayrim davlatlar fuqarolari O‘zbekistonda belgilangan muddat davomida vizasiz yurish imkoniyatlariga ega bo‘lmoqda va davlatimiz fuqarolari ham bazibir xorijiy davlatlarda qonunda ko‘rsatilgan davrda vizasiz harakatlanish huquqiga egadir. O‘zbekiston bir davlat bilan yaqinlashar ekan, evaziga boshqasidan uzoqlashmaydi. Bu ham xalqaro do’stlik munosabatlarining davomiyligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish omiñidir. Ikkinchidan, bu tashqi siyosatni amalga oshirishda davlatimiz manfaatlari turadi. Bunda, ko‘pincha, iqtisodiy sohaga katta e’tibor qaratiladi. Xalqaro munosabatlarni amalga oshirishda xorijiy davlatlar mamlakatimizning ayrim sohalariga investitsiya kiritadi.

Shu bois, xalqimiz va davlatimiz manfaatlarini yuksak darajaga ko‘targan holda O‘zbekiston tashqi siyosat sohasini kengaytirishga katta e’tibor qaratadi. Tashqi siyosatimiz kengaygan sari davlatimiz rivojlanishi va barqarorligi ham ortadi.



Tashqi siyosatni rivojlantirishga qaratilgan Prezident Farmonlaridan biri 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan "Harakatlar strategiyasi" edi. Harakatlar strategiyasida tashqi siyosat sohasidagi eng muhim yo‘nalishlar belgilab berilgan:

- ✓ Mamlakatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, davlatimizning xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekiston xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo‘schnichilik munosabatlari muhitini yaratish;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yuksaltirish, jahon hamjamiyatiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma’lumot berish;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- ✓ O‘zbekiston davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini tartibga solish [3].

Yuqorida keltirib o‘tilgan yo‘nalishlarning har biri o‘ziga xos. Chunki, avval ta’kidlab o‘tganimizdek, O‘zbekiston yaqindagina mustaqillikka erishganiga qaramasdan rivojlangan davlatlar qatoriga kirish niyatida, shuningdek, ikkinchi yo‘nalishda keltirilgan qoida bo‘yicha shuni aytish lozim hozirgi kunda davlatimiz bir qancha xalqaro tashkilotlarga a’zo bo’lib, ularning kengash yoxud sessiyalarida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar va kelib chiqayotgan muammolar haqida bayonotlar qiladi. Tashqi siyosatta eng muhim jihatlardan biri bu iqtisodiy barqarorlik hisoblanadi.

Tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshirish "Tashqi siyosiy konsepsiya"ga muvofiq amalga oshiriladi. 2020-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llangan Murojaatnomasida Sh.M.Mirziyoyev “Davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi takomillashtiriladi”-deb, ta’kidlab o‘tadi. Tashqi siyosiy konsepsiyaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi



davlatning, xalqning oliv manfaatlariga, farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik va ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarga rioya qilgan holda ittifoqlar tuzish, davlatlararo tuzilmalarga kirish va undan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoldi [4].

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi ochiq, pragmatik va teng huquqlilik prinsiplariga asoslangan holda, mamlakatimiz mustaqilligi va suverenitetini saqlash uchun, xalqimiz va davlatimizning ustuvor manfaatlari va kelajagini o‘ylagan holda, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini saqlab qolish va mustahkamlash uchun xalqaro miqyosda faol tashqi siyosatni amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 17-modda.
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Sh.M.Mirziyoyev . "Yangi Özbekiston strategiyasi". Toshkent."Özbekiston" nashriyoti. 2021
3. Özbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish býicha Harakatlar strategiyasi haqidagi Prezident Farmoni.07.02.2017.PF-4947. <https://lex.uz/docs/-3107036>
4. Tashqi siyosiy konsepsiya. 10.09.2012 O'RQ-330-sonli Qonuni